



E CONF SERIES



International Conference on Modern Science and Scientific Studies

Hosted online from Madrid, Spain

Website: econfseries.com

20th December, 2024

SURUNKALI PANKREATIT KASALLIGINING VITAMIN D VA ELASTAZA1 KO'RSATKICHLARINING TAHLILI

Aripova N. N.

Raxmatullayeva G. K.

Toshkent tibbiyot akademiyasi. Toshkent shahar.

Maqsad: Surunkali pankreatit kechishida qonda vitamin D miqdori va elastaza1 ko'rsatkichlarining klinik tahlili.

Material va uslublar: Tadqiqotda 94 ta (asosiy guruh) 32 yoshdan 84 yoshgacha bo'lgan surunkali pankreatitni kasallik xuruj davrida TTA klinikasi gastroenterologiya bo'limiga yotqizilgan bemorlarda o'tkazilgan. Bemorlarni taftish qilinganda 48tasi erkaklar, 44tasi ayollarni tashkil qiladi. Me'da osti bezi tashqi sekretor yetishmovchiligi najasda elastaza faolligi bo'yicha baholandi, qon zardobida vitamin D miqdori immunoferment usulida aniqlandi.

Natijalar. Natijalar ko'rib chiqilganda o'tkazilgan tadqiqotlar davomida vitamin D miqdori 22 ta (24%) bemorda me'yoriy ko'rsatkichlarda ($32,54 \pm 1,42$ ng/ml), 15 ta bemorda (16,3%) - qisman tanqislik ($23,84 \pm 0,83$ ng/ml), 42ta bemorda (45,6%) – defitsit ($15,55 \pm 0,61$ ng/ml) va 13 ta bemorda (14,1%) - kuchli yetishmovchilik ($7,0 \pm 0,75$ ng/ml) kuzatildi.

Vitamin D yetishmovchiligi tasnifiga ko'ra elastaza faolligini tahlil qilish vitamin D miqdoriga qarab tashqi sekretor pasayib borishini ko'rsatdi. Jumladan, vitamin D me'yorida bo'lgan bemorlarning najasda elastaza faolligi me'yoriy ko'rsatkichga nisbatan ortishiga moyillik kuzatilgan bo'lsa, qisman yetishmovchilikda – $177,23 \pm 14,19$ mkg/ml, defitsitda – $143,27 \pm 6,41$ mkg/ml, keskin defitsitda esa – $118,47 \pm 9,70$ mkg/ml tashkil etdi, ya'ni oshqozon osti bezining tashqi sekretor funksiyasini pasayib borishi vitamin D miqdoriga mos ravishda o'zgarib bordi.

Xulosalar: 1. Surunkali pankreatit bo'lgan bemorlarning asosiy qismida vitamin D defitsiti aniqlandi. Shu bilan birga vitamin D miqdorining kamayishi me'da osti



E CONF SERIES



International Conference on Modern Science and Scientific Studies

Hosted online from Madrid, Spain

Website: econfseries.com

20th December, 2024

bezining tashqi sekretor funksiyasini pasayishi bilan mos keldi. Surunkali pankreatitda vitamin D va elastaza 1 darajasini kuzatish malabsorbsiya, suyaklardagi o'zgarishlar va fermentlar faoliyati to'g'risida ham oldindan qimmatli ma'lumotlar beradi.